

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KASIMOVA FIRUZA ULUG'BEKOVNA

**GARMONIK VA TASODIFIY QO'ZG'ALISHLARDA
TEBRANISHLARDAN HIMOYALANUVCHI KO'NDALANG KESIMI
O'ZGARUVCHAN STERJENLARNING DINAMIKASI**

01.02.01 – Nazariy mexanika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Kasimova Firuza Ulug'bekovna

Garmonik va tasodifiy qo'zg'alishlarda tebranishlardan himoyalanuvchi
ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenlarning dinamikasi5

Касимова Фируза Улугбековна

Динамика виброзащищаемых стержней переменного поперечного сечения
при гармонических и случайных воздействиях21

Kasimova Firuza Ulug'bekovna

Dynamics of cross – section variable beams protected from vibrations in harmonic
and random excitations41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KASIMOVA FIRUZA ULUG'BEKOVNA

**GARMONIK VA TASODIFIY QO'ZG'ALISHLARDA
TEBRANISHLARDAN HIMOYALANUVCHI KO'NDALANG KESIMI
O'ZGARUVCHAN STERJENLARNING DINAMIKASI**

01.02.01 – Nazariy mexanika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM961 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-saytida (www.https://bstu.uz/) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dusmatov Olimjon Musurmonovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ruzmatov Maksud Israilovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:


**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura-qurilish universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzurifagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 27 » fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. [Tel:\(+99865\) 223-78-84](tel:+998652237884); faks (+99865) 223-79-72, E-mail:bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 488 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil (200100, Buxoro shahri, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. tel.:(+99895)604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «7» fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil «2» dekabrda № 19 raqamli reestr bayonnomasi).



M.X.Teshaev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d.(DSc), prof.

R.A.Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d.(PhD)

Z.I.Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d.(DSc), prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnika va texnologiyalarning, sanoat va ishlab chiqarishning turli sohalarida qo‘llanilayotgan murakkab qurilmalarni tashqi ta’sirlar natijasidagi harakatlarida yuzaga keladigan zararli tebranishlardan himoyalash, mustahkamligini ta’minlash, ishonchli ishlashi orqali samarador va uzoq muddatli foydalanishga erishishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan, mashina va mexanizmlarning, turli uskunalari, qurilmalar va ularning elementlarining tebranishlariga oid mavjud muammolarni ilmiy asoslab, matematik modellarini ishlab chiqish, dinamikasini baholash, tebranma harakatlarida ustuvorligini tekshirish va zarur tavsiyalar berish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yaponiya va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilayotgan murakkab mexanik sistemalarning zararli tebranishlarini so‘ndirish hamda uzoq muddat ishonchli ishlashini ta’minlash bo‘yicha mavjud muammolarni yechish muhim bo‘lgan vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda texnikaning barcha sohalarida muhandislik qurilmalari hamda ularning elementlarini turli jarayonlarda hosil bo‘ladigan zararli tebranishlardan himoyalashda qo‘llaniladigan yuqori effektivli dinamik so‘ndirgichlarni yaratish, ularni amaliy qo‘llanilishini ilmiy asoslab berish, materiallarning chiziqli bo‘lmagan dissipativlik xossalarini hisobga olgan holda dinamik xarakteristikalarini va ustuvorligini tekshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan taqsimlangan parametrlil mexanik sistemalarini tebranishlarini so‘ndirishda elastik elementlarini materiallarini yuqori dempferlash xususiyatiga ega bo‘lgan dinamik so‘ndirgichlarni matematik modellashtirish dinamikasini tekshirish, samarali hisoblash usullarini qo‘llashga hamda takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda sanoat, texnika va texnologiyaning ko‘plab sohalarida keng qo‘llanilayotgan qurilmalarni va ularning elementlarini matematik modellashtirish, dinamikasini va ustuvorligini o‘rganishga oid ko‘plab amaliy va fundamental loyihalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish..., qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish...”¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan qurilmalar va ularni elementlarining modellarini dissipativlik xossalarini hamda tashqi ta’sirlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqish, dinamikasini va ustuvorligini tekshirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-son “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60-son Farmoni.

akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganganlik darajasi. O‘zbekiston va xorij olimlari tomonidan tebranishlardan himoyalalanuvchi mexanik sistemalarni matematik modellashtirish, turli tipdagi dinamik so‘ndirgichlarni modellarini yaratish, dinamikasi va ustuvorligini tekshirish masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari A.M.Alekseev, Sh.P.Alimuxamedov, F.B.Badalov, O.M.Dusmatov, S.V.Yeliseyev, O.V.Zemskova, B.G.Korenev, V.B.Larin, M.A.Pavlovskiy, T.R.Rashidov, Yu.V.Radish, L.M.Reznikov, L.M.Rijkov, I.I.Safarov, M.X.Teshayev, K.V.Frolov, V.B.Yakovenko, H.V.Brussel, Q.Han, C.M.Harris, J.C.Ji, S.-M.Kim, Sh.-G.Kim, GJ. Den-Gartog, G.P.Nerubenko, K.M.Ragulskis, V.V.Karalishkin, A.K.Sborovskiy, M.M.Mirsaidov, Ya.G.Panovko, M.Z.Kolovskiy H.Rivaz, R.Rohling, J.S.Snowdon, J.Swevers va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan, rivojlantirilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Turli xil tashqi qo‘zg‘alishlar ta‘siridagi chiziqlimas murakkab mexanik sistemalar tebranishlari ustuvorligini tekshirish, ustuvorlik nazariyasi metodlari va kriteriyalarini tatqiq etish B.Atajanov, N.N.Bogolyubov, I.I.Gubanova, V.I.Vorotnikov, O.M.Dusmatov, A.V.Karapetyan, N.A.Korshunova, M.M.Martinyuk, D.R.Merkin, V.G.Miladjanov, N.N.Moiseyev, Yu.A.Mitropolskiy, M.A.Pavlovskiy, L.M.Rijkov, V.V.Rumyansev, X.T.Turayev, N.G.Chetayev, D.Liu, A.N.Michel, H.Ramon, E.Siller va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan va amaliy qo‘llash metodikalari yaratilgan.

Garmonik kinematik va tasodifiy qo‘zg‘alishlar uchun gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali taqsimlangan parametrlil tebranishlardan himoyalalanuvchi mexanik sistemalarning chiziqlimas tebranishlari M.A.Pavlovskiy, L.M.Rijkov, V.B.Yakovenko, O.M.Dusmatovlarning ishlarida matematik modellashtirilgan va dinamikasi o‘rganilgan. Garmonik va tasodifiy qo‘zg‘alishlar ta‘sirida bo‘lgan gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenlarning chiziqlimas tebranishlarini mataematik modellashtirish, dinamik so‘ndirgichlarning effektivligini baholash va ustuvorligini tekshirish yechilishni talab etadigan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “Deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta‘sir qiluvchi diskret-uzluksiz tizimlarning ustuvorligi va tebranishlarini o‘rganish” (2020-2025-yillar) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenlarning elastik dempferlovchi elementlari gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi ko'ndalang chiziqlimas tebranishlarini matematik modellashtirish, tebranishlarni so'ndirish effektivligini baholash va ustuvorligini tekshirish metodikalari va sonli hisoblashlar algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenlarning elastik dempferlovchi elementlari gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi ko'ndalang chiziqlimas tebranishlarini matematik modellarini ishlab chiqish;

sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi garmonik tebranishlarida uzatuvchi funksiyasini, tasodifiy tebranishlarida ko'chishlar va absolyut tezlanishlarining o'rtacha kvadratik qiymatlarini aniqlash;

garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi sterjenlarning tebranishlarini so'ndirishda dinamik so'ndirgichlarning effektivligini baholash metodikasini ishlab chiqish va konstruktiv parametrlarni tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan, nomukammal elastik sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarining ustuvorlik shartlarini aniqlash, ustuvorlik chegaralari va sohalarini topishning sonli hisoblashlar algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida nomukammal elastik ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenlar, qattiq jism va elastik demferlovchi elementga ega bo'lgan dinamik so'ndirgichlar olingan.

Tadqiqotning predmetini taqsimlangan va to'plangan massali mexanik sistemalarni matematik modellashtirish, hisoblash usullarini takomillashtirish, dinamikasini baholash, ustuvorlik shartlarini analitik ko'rinishda aniqlash, sonli tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda nazariy mexanika, tebranishlar nazariyasi, ustuvorlik nazariyasi, sonli hisoblash usullari, vertikal urinmalar hamda Lyapunovning birinchi yaqinlashish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi nomukammal elastik ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenlarning va ularning elastik dempferlovchi elementlari gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi ko'ndalang chiziqlimas tebranishlarini matematik modellari ishlab chiqilgan;

sterjenlarning dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi chiziqlimas garmonik kinematik tebranishlarida uzatish funksiyasini, tasodifiy tebranishlarida ko'chishlari va absolyut tezlanishlarining o'rtacha kvadratik qiymatlari ifodalarini analitik aniqlash metodikalari takomillashtirilgan va asoslab berilgan;

sterjenlarning kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang tebranishlarini so'ndirishda dinamik so'ndirgichlarning effektivligini baholashda sonli yechishning uslubiyati va konstruktiv parametrlarni tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenlarning dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini ustuvorlik shartlari aniqlangan, ustuvorlik chegaralari va sohalarini sonli aniqlashning uslubiyati ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenlarning dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi garmonik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang tebranishlarida loyihalash bo'yicha matematik modellari olingan;

sterjenlarning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi optimal parametrlarini tanlash bo'yicha uzatish funksiyalari, ko'chishlari va absolyut tezlanishlarining o'rtacha kvadratik qiymatlarining analitik ko'rinishda aniqlangan ifodalaridan foydalanib konstruktiv parametrlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenlar va dinamik so'ndirgichlarning birgalikdagi kinematik va tasodifiy ko'ndalang tebranishlarida ustuvorligini ta'minlash uchun parametrlarni tanlash metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan matematik va sonli usullarning qo'llanilishi, ishlab chiqilgan modellarning adekvatligi, xususiy hollarda ma'lum bo'lgan boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirish orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlar ta'siridagi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenlarning dinamik so'ndirgichlar bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini materiallarning gisterezis tipidagi chiziqli bo'lmagan dissipativlik xususiyatlarini hisobga olgan holda garmonik va statistik chiziqilashtirish usullarini qo'llab matematik modellashtirish, tebranishlarni so'ndirish effektivligini baholash va ustuvorligini tekshirish metodikalarining ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati esa sanoat, mashinasozlik, aviatsiya, kemasozlik va boshqa texnika sohalarida keng qo'llaniladigan mexanik sistemalarning ishonchliligini oshirish, ularni zararli tebranishlardan samarali himoyalash, xizmat muddatini uzaytirish hamda loyihalash jarayonlarida optimal konstruktiv parametrlarni tanlash imkoniyatini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Garmonik kinematik va tasodifiy qo'zg'alishlarda tebranishlardan himoyalayuvchi ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenlarning dinamikasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

garmonik kinematik va tasodifiy tebranishlar ta'siridagi transport vositalarining bir uchi qistirib mahkamlangan, ikkinchi uchi erkin bo'lgan sterjenlar shaklidagi qismlarining materiallardagi chiziqilmas dempferlash xarakteristikalarini hisobga olgan tebranishlarini chastotalarning keng diapazonida pasaytirish metodikasi va algoritmidan Samarqand viloyati transport boshqarmasi "Tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiyasi" davlat korxonasiida transport

vositalarining sterjenlar shaklidagi qismlari tebranishlarini matematik modelini ishlab chiqishda va dinamikasini baholashda joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 26.06.2025 yildagi №04/6854 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, garmonik kinematik qo‘zg‘alishlarda dinamik so‘ndirgichlarni qo‘llash orqali bir uchi qistirib mahkamlangan, ikkinchi uchi erkin bo‘lgan sterjenlar shaklidagi qismlarning zararli tebranishlarni 1.2 martadan 2.6 martagacha kamaytirishga erishilgan.

gisterezis tipidagi chiziqlimas dissipativ xarakteristikali tebranishlardan himoyalانuvchi sterjenlarni matematik modellashtirish, masalalarni yechish metodikalari va sonli yechish algoritmi davlat dasturlari doirasida 2021-2023 yillarda Andijon davlat texnika institutida bajarilgan UZB-IND 2021-85 “Nano-termoplast (polipropilen), reaktoplast (epoksid smolasi asosida), nano o‘lchamdagi to‘ldiruvchilar bilan boyitilgan polimer kompozit materiallar va qoplamalarini mexanik hamda tribologik xossalarini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda qo‘llanilgan (Andijon davlat texnika institutining 29.11.2025 yildagi № 01-03-3751 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kompozit materialli konstruksiya elementlarining dinamikasini tekshirish va sonli tahlil etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta Respublika, 3 ta xorijiy nashrlarda (1 tasi xalqaro SCOPUS bazasida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismda tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan sterjenlarning tebranishlari dinamikasi, ustuvorligi va dinamik so‘ndirgichlarning qo‘llanilishi bo‘yicha adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida turli jarayonlarda sterjenlarning tebranishlari modellari, dinamik xarakteristikalari va dinamik so‘ndirgichlarga oid adabiyotlarning sharhi keltirilgan. Adabiyotlar tahlili bo‘yicha kinematik va tasodifiy qo‘zg‘alishlar ta’siridagi ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan bo‘lgan tebranishlardan himoyalانuvchi nomukammal elastik-gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenlarning ko‘ndalang

tebranishlarini matematik modellashtirish, dinamikasini o‘rganish va ustuvorligini tekshirish yechilishni talab etadigan dolzarb masalalardan ekanligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Garmonik kinematik qo‘zg‘alishlar ta’sirida ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan sterjenning dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi chiziqlimas ko‘ndalang tebranishlari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** garmonik kinematik qo‘zg‘alishlar ta’siridagi ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan nomukammal elastik sterjen va uning gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik dempferlovchi elementga ega bo‘lgan dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi ko‘ndalang tebranishlarini o‘rganish masalasi qaralgan.



1- Sterjenning dinamik so‘ndirgich bilan sxemasi.

Ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan nomukammal elastik sterjenning matematik modeli olingan. Bunda sterjen materialining gisterezis tipidagi dissipativlik xarakteristikalarini ifodalovchi chiziqlimas funksiya garmonik linearizatsiya usuli yordamida chiziqli kompleks funksiya bilan almashtirilib tenglamada xususiy formalar bo‘yicha qatorga yoyish usulidan foydalanib nomukammal elastik sterjen tenglamasining yechimi aniqlangan. Natijada sterjen ko‘ndalang tebranishlarining uzatish funksiyasi olingan. Sterjen ko‘ndalang tebranishlari dinamikasini parametrlarning turli qiymatlarida tahlil qilinib, dinamik xarakteristikalari bo‘yicha xulosalar olingan.

Kinematik qo‘zg‘alishlar ta’siridagi nomukammal elastik sterjen va qattiq jisimli elastik dempferlovchi elementi materialining dissipativlik xarakteristikalari gisterezis tipidagi dinamik so‘ndirgichning birgalikdagi ko‘ndalang tebranishlari differensial tenglamalar sistemasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{\partial^2 M}{\partial x^2} + \rho F \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} - c(1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot}))\zeta)\delta(x - x_0) = -\rho F \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \quad (1)$$

$$m \frac{\partial^2 w(x_0)}{\partial t^2} + m \frac{\partial^2 \zeta}{\partial t^2} + c(1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot}))\zeta) = -m \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.$$

bunda M – eguvchi moment; ρ, F – lar mos ravishda sterjen materialining zichligi va ko‘ndalan kesimi yuzi; $w(x_0)$ – dinamik so‘ndirgich o‘rnatilgan sterjen nuqtasining ko‘chishi; x_0 - dinamik so‘ndirgich o‘rnatilgan nuqta; $\delta(x)$ – Dirakning delta funksiyasi; c, m – lar mos ravishda dinamik so‘ndirgichning bikrligi va massasi; ζ – dinamik so‘ndirgichning nisbiy deformatsiyasi; θ_1, θ_2 - dinamik so‘ndirgich materialining dissipativ xossalariga bog‘liq bo‘lgan koeffisientlar bo‘lib, gisterezis sirtmog‘idan aniqlanadi; $j^2 = -1$; $f(\zeta_{ot})$ – tebranishlar dekrementi bo‘lib, ζ_{ot} nisbiy deformatsiya absolyut qiymatining funksiyasi hisoblanadi, $f(\zeta_{ot}) = D_1\zeta_{ot} + D_2\zeta_{ot}^2 \dots + D_s\zeta_{ot}^s$, D_0, D_1, \dots, D_s - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo‘lib, dinamik so‘ndirgich materialining dempferlovchi xossalariga bog‘liq.

(1) differensial tenglamalar sistemasini xususiy formalar bo'yicha qatorda yoyish usulidan foydalanib yechish natijasida q_i va ζ o'zgaruvchilarning ifodalari qo'yidagicha aniqlangan:

$$q_i = -\frac{d_i\{S^2 + N_0\} + \mu\mu_0 u_{i0} N_0}{N_a\{S^2 + N_0\} + u_{i0} S^2 \mu\mu_0 N_0} W_0; \quad \zeta = -\frac{N_a - u_{i0} S^2 d_i}{N_a\{S^2 + N_0\} + u_{i0} S^2 \mu\mu_0 N_0} W_0; \quad (2)$$

bu yerda $N_0 = n_0^2 (1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot})))$;

$$N_a = S^2 + (1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2))p_i^2 + 3B(-\eta_1 + j\eta_2) \times \\ \times \sum_{k=1}^n A_k \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + B \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \times \\ \times \left[1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2) + 3(-\eta_1 + j\eta_2) \sum_{k=1}^n A_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + 2B \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right] \times \\ \times [1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2) + 3(-\eta_1 + j\eta_2) \sum_{k=1}^n A_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k] dx,$$

$$A_k = C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)}; \quad B = \frac{E}{\rho F d_{2i}}.$$

Natijada tebranishlardan himoyaluvchi sterjenning uzatuvchi funksiyasi aniqlangan va sonli hisoblashlar natijasida dinamikasi tekshirilgan. Bunda sterjen va dinamik so'ndirgich elastik dempferlovchi elementi materiallarining nomukammal elastik dissipativlik xossalari Pisarenko – Boginich modeli bo'yicha olingan.

Ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenning chap uchi qistirib mahkamlangan, o'ng uchi erkin bo'lgan hol qaralgan. Bunda asos ko'chishi $w_0 = -\varepsilon a_0 \cos \omega t$ va dinamik so'ndirgich sterjenning erkin uchiga o'rnatilgan. U holda chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi:

$x = 0$ bo'lgan sterjen uchi uchun:

$$w_i = w_0, \quad \frac{\partial w_i}{\partial x} = 0.$$

$x = l$ bo'lgan sterjen uchi uchun:

$$\frac{\partial^2 w_i}{\partial x^2} = 0, \quad \frac{\partial}{\partial x} (EI(x) \frac{\partial^2 w_i}{\partial x^2})|_{x=x_0} = -P_d,$$

bunda P_d – dinamik so'ndirgichning ko'ndalang kesimi o'zgaruvchi sterjenga ta'sirini ifodalovchi kuchining amplitudaviy qiymati.

Bunda $E = 2.08 \cdot 10^{11} \frac{N}{m^2}$; $\rho = 7810 \frac{kg}{m^3}$; $b = 0.02 + 0.01 \sin(80x) m$;

$h = 2 \cdot 10^{-3} m$.

Xususiy tebranishlar formalarni quyidagicha olamiz:


$$u_i(x) = AK_1(k_i x) + BK_2(k_i x) + CK_3(k_i x) + DK_4(k_i x), \quad (3)$$

bunda A, B, C, D – chegaraviy va dinamik shartlardan aniqlanuvchi koeffitsiyentlar; $K_1(k_i x), K_2(k_i x), K_3(k_i x), K_4(k_i x)$ – Krilov funksiyalari.

Bu holda chastotalar tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$1 + \cosh(k_i l) \cos(k_i l) = 0. \quad (4)$$

$l = 0.25 m$ bo'lganda (4) tenglama grafik usulda tahlil qilingan.



2-rasm. (4) tenglamani aniqlovchi funksiyaning grafigi.


2-rasmda (4) chastota tenglamasining grafigi (a) va uning birinchi (b) va ikkinchi (c) nollari keltirilgan. Bu grafiklardan $k_1 = 7.500416275$ va $k_2 = 18.77635$ ekanligini aniqlash mumkin. Natijada sterjen xususiy chastotalarini quyidagicha aniqlaymiz: $p_1 = 167.6163034 \text{ s}^{-1}$; $p_2 = 1050.431816 \text{ s}^{-1}$.

Birinchi va ikkinchi tebranish formalarini tahlil qilingan:


$$u_1(x) = 999.668759(\cosh(7.500416275x) - \cos(7.500416275x)) - 773.8523515(\sinh(7.500416275x) - \sin(7.500416275x)); \quad (5)$$

$$u_2(x) = -2.81762557 \cdot 10^5(\cosh(18.7764x) - \cos(18.7764x)) + 2.869669872 \cdot 10^5(\sinh(18.7764x) - \sin(18.7764x)); \quad (6)$$

(5) va (6) xususiy tebranish formalarining grafiglari quyidagicha bo'ladi:



3-rasm. (5) xususiy tebranish formasining grafigi




4-rasm. (6) xususiy tebranish formasining grafigi

3-rasmda (5) xususiy tebranish formasining grafigi tasvirlangan. Bu grafikdan shuni ko'rishimiz mumkinki, chap uchi qistirib mahkamlangan va o'ng uchi erkin bo'lgan hamda o'ng uchiga dinamik so'ndirgich o'rnatilgan sterjenning chap uchidan boshlab o'ngga qarab siljigan nuqtalarining ko'chishlari sterjen uzunligi bo'yicha proporsional ravishda ko'chmaydi. Ya'ni, $u_1(0.05) = 127.6995493$, $u_1(0.1) = 459.6164556$, $u_1(0.15) = 921.9636139$, $u_1(0.2) = 1450.474769$ va $u_1(0.25) = 1999.337518$. Bu aniqlangan qiymatlar sterjenning har bir nuqtasining ko'chishini baholash imkonini beradi.

4-rasmda (6) xususiy tebranish formasining grafigi tasvirlangan. Bu grafikdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, tebranishning ikkinchi formasida birinchi formasidagi kabi chap uchi qistirib mahkamlangan va o‘ng uchi erkin bo‘lgan hamda o‘ng uchiga dinamik so‘ndirgich o‘rnatilgan sterjenning chap uchidan boshlab o‘ngga qarab siljigan nuqtalarining ko‘chishlari sterjen uzunligi bo‘yicha proporsional ravishda ko‘chmaydi. Ya‘ni, $u_2(0.05) = -1.696515604 \cdot 10^5$, $u_2(0.1) = -3.851497135 \cdot 10^5$, $u_2(0.15) = -3.321767654 \cdot 10^5$, $u_2(0.2) = 39488.0953$ va $u_2(0.25) = 5.635804196 \cdot 10^5$.

Amplituda-chastota xarakteristikasini tahlil qilamiz.



5-rasm. (2) amplituda-chastota xarakteristikasining o‘zgarishi

5-a),b),c),d) rasmlardagi grafiklarda parametrlarning yuqorida keltirilgan qiymatlarida (2) $S = i\omega$ almashtirishdan keyin absolyut qiymatlar bo‘yicha sonli hisoblashlar natijasida aniqlangan amplituda-chastota xarakteristikasining sterjen ko‘ndalang kesimi ya‘ni, sterjen eni $b = 0.02 + 0.01 \sin(80x) m$ o‘zgaruvchan (yashil) va $b = 0.02 m$ o‘zgarmas (qizil) bo‘lgan hollar uchun o‘zgarishi tasvirlangan. 5-d) rasmdagi grafiklardan shuni xulosa qilish mumkinki, sterjen eni o‘zgaruvchan (yashil) bo‘lganda o‘zgarmas (qizil) bo‘lgan holga nisbatan tebranishlar spektri keng bo‘ladi. 5-a) rasmdagi grafiklardan rezonans chastotasi atrofida rezonans egri chizig‘i sterjenning eni o‘zgaruvchan (yashil) bo‘lganda o‘zgarmas (qizil) bo‘lgan holga nisbatan kichik amplitudaga erishadi va chastotalar o‘qida chapda joylashadi. 5-b),c) rasmlardagi grafiklardan tebranish amplitudasining ikkinchi katta qiymatlarini aniqlash mumkin, bu qiymatlar tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning xususiy chastotasidan etarlicha uzoqdali sababli rezonans hodisasining yuzaga kelishida ahamiyat kasb etmaydi.

Keltirilgan metodika bo'yicha ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan tebranishlardan himoyalovchi sterjenning chiziqlimas tebranishlarini so'ndirish effektivligi baholanib, sistema konstruktiv parametrlarini tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissretatsiyaning uchunchi bobi "**Tasodifiy qo'zg'alishlar ta'sirida ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqlimas ko'ndalang tebranishlari**" deb nomlangan. Ushbu bobda tasodifiy qo'zg'alishlar ta'sirida ko'ndalang kesimi o'zgaruvchan nomukammal elastik sterjenning gisterezis tipidagi dissipativ xarakteristikali elastik dempferlovchi elementga ega bo'lgan dinamik so'ndirgichsiz hamda dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqlimas tebranishlari matematik modellashtirilgan, ko'chishlari va tezlanishlarining o'rtacha kvadratik qiymatlari ifodalari analitik ko'rinishda aniqlangan.

Nomukammal elastik sterjenning ko'ndalang tebranishlari harakat differensiyal tenglamasini yechimi aniqlanib, sterjenning chiziqlimas tasodifiy tebranishlarda ko'chishlar o'rtacha kvadratik qiymatlari ifodasi quyidagi ko'rinishda aniqlangan:

$$\sigma_{qi}^2 = \int_{-\infty}^{\infty} \left| \frac{d_i}{N_{10} + jN_{20}} \right|^2 S_{W_0}(\omega) d\omega, \quad (7)$$

bunda

$$\begin{aligned} N_{10} = & -\omega^2 + (1 - \gamma_1 K_0) p_i^2 - \gamma_1 3B \sum_{k=1}^n G_k \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + \\ & + B \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[1 - \gamma_1 K_0 - 3\gamma_1 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + 2B \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \times \\ & \times \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[1 - \gamma_1 K_0 - 3\gamma_1 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] \right] dx; \\ N_{20} = & \gamma_2 K_0 p_i^2 + 3B\eta_2 \sum_{k=1}^n G_k \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + B \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} \times \\ & \times u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[\gamma_2 K_0 + 3\gamma_2 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + 2B \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \times \\ & \times \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[\gamma_2 K_0 + 3\gamma_2 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] \right] dx; \quad G_k = K_k \sigma_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)}. \end{aligned}$$

γ_1, γ_2 - lar sterjen materialining elastik dissipativlik xossalariga bog'liq bo'lgan doimiy koeffitsientlar bo'lib, gisterezis sirtmog'idan aniqlanadi; K_0, K_1, \dots, K_n - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo'lib, sterjen materialining dempferlovchi xossalariga bog'liq; $S_{W_0}(\omega)$ - asos tezlanishlarning spektral zichligi.

Natijada (7) ifodani hisobga olib, sterjenning absolyut tezlanishlari o'rtacha kvadratik qiymatlarining ifodasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_{W_0}^2(\omega) = \int_{-\infty}^{\infty} \left| 1 - u_i \omega^2 \frac{d_i}{N_{10} + jN_{20}} \right|^2 S_{W_0}(\omega) d\omega. \quad (8)$$

(8) ifoda yordamida sterjenning tasodifiy tebranishlari dinamikasi parametrlarning turli qiymatlarida tahlil qilingan, xulosalar olingan.

Sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tasodifiy tebranishlardagi harakat differensial tenglamalar sistemasini differensial operatori hisobga olib yechish natijasida q_i va ζ o'zgaruvchilarni quyidagi ifodalardan aniqlaymiz:

$$q_i = \frac{A_{10} + jB_{10}}{A_2 + jB_2} W_0; \quad \zeta = \frac{A_{20} + jB_{20}}{A_2 + jB_2} W_0; \quad (9)$$

bunda $A_{10} = d_i \omega^2 - (d_i + \mu \mu_0 u_{i0}) n_0^2 N_{01}$; $B_{10} = -(d_i + \mu \mu_0 u_{i0}) n_0^2 N_{02}$;

$$N_{01} = 1 - \varphi_1(H_0 + f(\zeta_{ot})); N_{02} = \varphi_2(H_0 + f(\zeta_{ot}));$$

$$A_{20} = -p_i^2 N_{11} - p_i^2 - (u_{i0} d_i - 1) \omega^2; B_{20} = -p_i^2 N_{12};$$

$$N_{11} = -K_0 \gamma_1 - \frac{3B}{p_i^2} \gamma_1 \sum_{k=1}^n G_k \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + \frac{B}{p_i^2} \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \times$$

$$\times \left[1 - K_0 \gamma_{11} - 3\gamma_1 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + \frac{2B}{p_i^2} \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \times$$

$$\times [1 - K_0 \gamma_1 - 3\gamma_1 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k] \right] dx;$$

$$N_{12} = K_0 \gamma_2 + \frac{3B}{p_i^2} \gamma_2 \sum_{k=1}^n G_k \int_0^l I(x) u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx + \frac{B}{p_i^2} \int_0^l \frac{\partial^2 I(x)}{\partial x^2} u_i \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \times$$

$$\times \left[1 + K_0 \gamma_2 + 3\gamma_2 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] dx + \frac{2B}{p_i^2} \times$$

$$\times \int_0^l \frac{\partial I(x)}{\partial x} u_i \frac{\partial}{\partial x} \left[\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left[1 + K_0 \gamma_2 + 3\gamma_2 \sum_{k=1}^n G_k \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right] \right] dx;$$

φ_1, φ_2 - dinamik so'ndirgich materialining dissipativ xossalariga bog'liq bo'lgan koeffisientlar bo'lib, gisterezis sirtmog'idan aniqlanadi; $f(\sigma_{\zeta_{ot}})$ - tebranishlar dekrementi bo'lib, ζ_{ot} nisbiy deformatsiya absolyut qiymatining funksiyasi hisoblanadi, $f(\zeta_{ot}) = H_1 \sigma_{\zeta_{ot}} + H_2 \sigma_{\zeta_{ot}}^2 + \dots + H_s \sigma_{\zeta_{ot}}^s$; H_0, H_1, \dots, H_s - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo'lib, dinamik so'ndirgich elastik dempferlovchi elementi materialining dissipativlik xossalariga bog'liq; $\sigma_{\zeta_{ot}}$ - dinamik so'ndirgichni elastik dempferlovchi elementi nisbiy deformatsiyasi o'rtacha kvadratik qiymatlari;

$$A_2 = (p_i^2 - \omega^2 + p_i^2 N_{11})(n_0^2 N_{01} - \omega^2) - p_i^2 n_0^2 N_{12} N_{02} - u_{i0}^2 \mu \mu_0 \omega^2 n_0^2 N_{01};$$


$$B_2 = (p_i^2 - \omega^2 + p_i^2 N_{11}) n_0^2 N_{02} + p_i^2 N_{12} (n_0^2 N_{01} - \omega^2) - u_{i0}^2 \mu \mu_0 \omega^2 n_0^2 N_{02}.$$

(9) munosabatlarga asosan qaralayotgan tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjen tasodifiy tebranishlarining ko‘chishlari bo‘yicha o‘rtacha kvadratik qiymatlari ifodalari olingan, ya’ni


$$\sigma_{q_i}^2(\omega) = \int_{-\infty}^{\infty} \left| \frac{A_{10} + jB_{10}}{A_2 + jB_2} \right|^2 S_{W_0}(\omega) d\omega; \quad \sigma_{\zeta}^2(\omega) = \int_{-\infty}^{\infty} \left| \frac{A_{20} + jB_{20}}{A_2 + jB_2} \right|^2 S_{W_0}(\omega) d\omega. \quad (10)$$

(10) o‘rtacha kvadratik qiymatlar ifodalari yordamida sterjenning dinamik so‘ndirgich bilan birgalikdagi tasodifiy tebranishlari dinamikasi va ustuvorligi parametrlarning turli qiymatlarida sonli hisblashlar yordamida tahlil qilingan, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Rezonans egri chiziqlarining vertikalidan og‘ishini va sterjen materialida energiyaning tarqalishini tahlil qilish maqsadida sterjenning ko‘ndalang kesimi o‘zgaruvchan va o‘zgarmas bo‘lgan hollarda N_{11} va N_{12} funksiyalarning grafiklari 7,8-rasmlarda tasvirlangan.



